



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
e LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2



KOMILOV Asadbek Maxsudbek o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: medialawyerkomilov@gmail.com

SUDLAR FAOLIYATINI YORITISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ISHTIROKINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY KAFOLATLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): KOMILOV A.M. Sudlar faoliyatini yoritishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 32-40.

 2 (2026) DOI <http://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-003>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sud jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalari (OAV) ishtirokining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, ularning nazariy hamda tashkiliy jihatlari tahlil etiladi. Maqola asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari, ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, qolaversa, "Sudlar to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 21-fevraldagi "Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida"gi Qarori asosida olib borildi. Shuningdek, sud muhokamasining ochiqligi prinsipi, axborot erkinligi va sud hokimiyati mustaqilligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritilib, OAV vakillarining sud majlislarida ishtirok etish huquqi va uning huquqiy kafolatlari izchil ochib beriladi. Shuningdek, sud axborotlarining oshkoraligi, ularni tarqatishning qonuniy asoslari hamda ayrim hollarda axborotni cheklash mezonlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, sud faoliyatiga noqonuniy aralashuvning oldini olish, jamoatchilik nazoratini ta'minlash va sud tizimiga nisbatan ishonchni mustahkamlashda OAVning o'рни alohida ko'rib chiqiladi. Maqolada sud va OAV o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning mavjud holati tizimli tahlil qilinib, amaliyotda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi. Ilmiy tahlil natijasida sud muhokamasi oshkoraligini ta'minlash, axborot erkinligini kengaytirish hamda sud hokimiyati mustaqilligini saqlagan holda OAV faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sud jarayonlari, ommaviy axborot vositalari, konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar, sud muhokamasining oshkoraligi, axborot olish huquqi, sud hokimiyati mustaqilligi, jamoatchilik nazorati, sud majlislarining ochiqligi, protsessual qonunchilik, Oliy sud Plenumi qarori, huquqiy tartibga solish.

КОМИЛОВ Асадбек

Независимый соискатель Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан
E-mail: medialawyerkomilov@gmail.com

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ УЧАСТИЯ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ИНФОРМИРОВАНИИ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУДОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются конституционно-правовые основы участия СМИ в освещении судебных процессов, их теоретические и организационные аспекты. Статья основана на нормах Конституции Республики Узбекистан, ряде нормативно-правовых актов, регулирующих деятельность средств массовой информации, а также на Законе «О судах» и постановлении Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 21 февраля 2020 года «Об обеспечении гласности судебного разбирательства и права на получение информации о деятельности судов». Также освещается взаимосвязь между принципом открытости судебного разбирательства, свободой информации и независимостью судебной власти, последовательно раскрывается право представителей СМИ на участие в судебных заседаниях и его правовые гарантии. Также анализируются прозрачность судебной информации, правовые основания ее распространения, а также критерии ограничения информации в отдельных случаях. Кроме того, отдельно рассматривается роль СМИ в предотвращении незаконного вмешательства в судебную деятельность, обеспечении общественного контроля и укреплении доверия к судебной системе. В статье систематически анализируется текущее состояние регулирования отношений между судом и СМИ, выявляются проблемы, встречающиеся на практике, и пути их устранения. В результате научного анализа будут разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на обеспечение прозрачности судебного разбирательства, расширение свободы информации и совершенствование деятельности СМИ при сохранении независимости судебной власти.

Ключевые слова: судебные процессы, СМИ, конституционно-правовые гарантии, гласность суда, право на информацию, независимость суда, общественный контроль, открытые заседания, процессуальное законодательство, постановление Пленума Верховного Суда, правовое регулирование.

ASADBEK Komilov

Independent Researcher of the Training Institute
for Lawyers under Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan
E-mail: medialawyerkomilov@gmail.com

CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES OF THE PARTICIPATION OF MASS MEDIA IN REPORTING ON THE ACTIVITIES OF COURTS

ANNOTATION

This article examines the constitutional and legal foundations of mass media (media outlets) in judicial proceedings, as well as their theoretical and organizational aspects. The article is based on the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, a number of regulatory legal acts governing the activities of the media, the Law "On Courts," and the resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated February 21, 2020, "On Ensuring the Transparency of Judicial Proceedings

and the Right to Obtain Information on the Activities of Courts.” The principle of openness of judicial proceedings, the interrelation between freedom of information and judicial independence, and thoroughly examines the rights of media representatives to participate in court sessions and their legal guarantees. Furthermore, the openness of judicial information, its lawful dissemination, and the criteria for restricting information in certain cases are analyzed. Special attention is paid to the role of the media in preventing unlawful interference in court activities, ensuring public oversight, and strengthening trust in the judicial system. The article provides a systematic analysis of the current regulation of relations between the courts and the media, identifies practical problems, and proposes solutions. Based on the scientific analysis, evidence-based proposals and recommendations are developed to ensure the transparency of judicial proceedings, expand freedom of information, and improve the functioning of the media while maintaining the independence of the judiciary.

Keywords: court proceedings, mass media, constitutional guarantees, judicial transparency, right to information, judicial independence, public oversight, openness of court sessions, procedural law, Supreme Court Plenum resolution, legal regulation.

Sudlarning ochiqligi va adolatli qaror qabul qilinishini ta'minlash har bir demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, ommaviy axborot vositalari sud jarayonlarini yoritishda muhim institut sifatida xizmat qiladi. Ularning ishtiroki sud faoliyatining oshkoraligi, jamoatchilik nazorati va axborot erkinligini ta'minlashda konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ammo sudlar faoliyatini yoritishda ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynashi bilan birga, amaliyotda ayrim kamchiliklar va xatolar saqlanib qolmoqda. Bu holatlar nafaqat sud jarayonlarining oshkoraligiga ta'sir qiladi, balki sud tizimiga, qolaversa, bir tahririyat xodimining xato yondashuvi butun bir ommaviy axborot vositalari tizimiga bo'lgan jamoatchilik ishonchini ham susaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ommaviy axborot vositalari, xususan jurnalistlar faoliyatini takomillashtirishga, negaki bu soha jamiyat taraqqiyoti va ochiqlikni ta'minlashda muhim o'rin tutishini ta'kidlab keladi. Davlat rahbarining “Ommaviy axborot vositalari xodimlarining o'z faoliyatini qonun doirasida erkin amalga oshirishga to'sqinlik qilish — bu demokratik islohotlarimizga qarshi harakat, mamlakatimizning obro'siga putur yetkazish sifatida baholanishi kerak” degan gaplari ham aslida ommaviy axborot vositalari faoliyatiga berilayotgan ulkan ishonchdir [1]. Davlat boshlig'ining mazkur fikrlari ommaviy axborot vositalari vakillarining nafaqat huquqlarini himoya qilish, balki ularning jamiyatdagi o'рни va nufuzini yanada oshirishga qaratilgan muhim tamoyil sifatida baholanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, ular faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kadrlar salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish, jurnalistika sohasini rivojlantirish maqsadida 2022-yil 27-iyun kuni PQ-294-son “Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Qarori qabul qilinishi ham fikrimizning isbotidir. Qarorda jurnalistlarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasining jurnalistlar va davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida yuzaga kelgan nizolarning sudgacha hal etilishiga ko'maklashish, jurnalistlarning professional faoliyatiga taalluqli jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishda ularning jamoatchilik himoyachilari sifatida qonunda belgilangan tartibda ishtirok etish kabi takliflari qanoatlantirilgan [2].

Shuningdek, xalqaro huquqshunolar ham ommaviy axborot vositalarisiz huquqiy davlatni tasavvur qilib bo'lmasligini urg'ulaydilar. Xususan, amerikalik mashhur huquqshunos, Yale

universiteti professori Judit Resnik sudlar faoliyatiga oid yozgan bir qator ilmiy maqolalari va kitoblarida sudlar jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi kerakligini asoslaydi [3]. Uning ta'kidlashicha, sudlar faqat qaror chiqaruvchi emas, balki jamoatchilik oldida mas'ul institutdir, shu bois ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik demokratik-huquqiy davlatning taraqqiyotida juda muhimdir. Sud oshkoraligi nazariyasining asoschilaridan biri, angliyalik huquqshunos Jeremy Bentham sud jarayonlari ochiq bo'lmasa, adolat ta'minlanmasligi, unda jurnalistlarning ishtiroki — oshkoralikni ta'minlashning amaliy vositasi ekaniga to'xtalgan. Huquqshunosga ko'ra, oshkoralik sud tizimiga jamoatchilikning ishonchi uchun ham, adolatni amalga oshirish uchun ham bir xil darajada muhimdir [4].

Mahalliy olimlardan yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori Jasurbek Ilxombekovning o'z ilmiy ishlarida ilgari surgan fikrlari esa sudlar faoliyatini yoritishda zamonaviy axborot makonining, xususan, internet tarmog'ining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi [5]. Bizningcha esa, nazariy jihatdan sudlar oshkoraligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari ishtiroki yuqori baholansa-da, amaliyotda bu jarayon har doim ham ijobiy natija bermaydi. Xususan, jurnalistlarning sud jarayonlarini yoritishdagi ayrim kamchiliklari oshkoralik tamoyilining to'liq va to'g'ri amalga oshishiga to'sqinlik qilishi mumkin. **Birinchi**dan, ba'zi holatlarda jurnalistlar tomonidan huquqiy masalalarning yetarlicha chuqur tushunilmasligi noto'g'ri yoki biryozlama axborot tarqatilishiga olib keladi. Bu esa jamoatchilikda sud jarayonlari haqida noto'g'ri tasavvur shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. **Ikkinchi**dan, sensatsiyaga intilish yoki auditoriyani jalb qilish maqsadida ayrim faktlarning bo'rttirib ko'rsatilishi sudning xolisligi va mustaqilligiga nisbatan shubha uyg'otadi. **Uchinchi**dan, sud jarayonlari davom etayotgan paytda jurnalistlar tomonidan bildirilayotgan subyektiv xulosalar yoki taxminlar taraflarga nisbatan jamoatchilik fikrining oldindan shakllanishiga olib keladi, bu esa aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga zid kelishi ehtimolini oshiradi. Ayrim hollarda esa sud ishtirokchilarining shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarning oshkor etilishi ham jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, sud oshkoraligini ta'minlashda nafaqat jurnalistlarning ishtiroki, balki ularning kasbiy malakasi, huquqiy savodxonligi va etik me'yorlarga rioya qilishi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Darhaqiqat, bugungi kunda ommaviy axborot vositalari sud jarayonlari haqida tezkor va keng qamrovli axborot tarqatish orqali jamoatchilikning huquqiy ongini oshirish, sud tizimining ochiqligini ta'minlash hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Ammo jurnalistlarning o'zi yetarli darajada huquqiy savodxon bo'lmasa, bu amaliyotda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, ayrim jurnalistlarning faoliyatida, xususan sud jarayonlarini yoritishda, boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini e'tibordan chetda qoldirgan holda axborot tarqatish holatlari ham uchrab turibdi. Ba'zan materialni tezroq tayyorlash maqsadida sud majlislariga ortiqcha aralashuv, jarayon ishtirokchilariga bosim o'tkazish yoki hali yakuniy qaror chiqmagan ishlar yuzasidan biryozlama xulosalar berish yoki asossiz taxminlar bildirish kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat sud hokimiyatining mustaqilligiga putur yetkazadi, balki odil sudlov prinsiplariga ham zid keladi. Axborot iste'molchilari uchun eng muhim va dolzarb ma'lumotlar qatorida huquq sohasiga oid, ayniqsa sud jarayonlari bilan bog'liq axborotlar alohida o'rin egallaydi. Biroq boshqa yo'nalishlar bilan taqqoslaganda, sud jarayonlarini yoritish ancha murakkab ish hisoblanadi. OAV vakillari sohaga oid, ayniqsa sud jarayonlarini yoritish yuzasidan belgilab qo'yilgan normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini tushunmasdan faoliyat yuritsa, bu boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklariga, qonuniy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Chunki sud jarayonlarida bevosita fuqarolarga oid ma'lumotlar bilan ishlanadi. Shu bois muxbirlar va jurnalistlar, umuman sud zalidan yoki uning tashqarisidan axborotni to'playotgan va uni e'lon qilishga tayyorlayotgan ommaviy axborot vositalari vakillari qonunchilik normalarining

mazmunini chuqur anglab yetishi, tarqatayotgan axboroti uchun javobgarlik o'zlarining zimmasida ekanini yodda saqlashlari lozim.

2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan referendumda mutlaq ko'pchilik ovoz bilan, ya'ni milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor fuqarolar tomonidan qabul qilingan va shu tariqa haqiqiy xalq konstitutsiyasiga aylangan yangi tahrirdagi bosh qomusimizning 81–82-moddalari ommaviy axborot vositalari faoliyatini konstitutsiyaviy jihatdan tartibga soladi. Mazkur holat OAV faoliyatining legitim asoslari bevosita xalq irodasiga tayanganini anglatadi. Xususan, 81-modda normasida ommaviy axborot vositalari erkin ekani, ular qonunga muvofiq ish olib borishi, davlat ular faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishi kafolatlanishi qayd etilgan [6]. Ushbu norma OAV erkinligi bilan bir qatorda uning huquqiy chegaralarini ham belgilovchi kompleks konstitutsiyaviy kafolat sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, ommaviy axborot vositalari o'zlari taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir. Bu esa axborot erkinligi tamoyili mas'uliyat bilan uyg'un holda amalga oshirilishini taqozo etadi. Bunday mazmundagi qoida O'RQ-78-son "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasi hamda 400-I-son "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida, qolaversa, 402-I-son "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasida ham keltirilgan. Demak, mazkur prinsiplar ko'p pog'onali normativ-huquqiy tizim orqali mustahkamlanganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Bu Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Mazkur qoida sud hokimiyatining eksklyuziv vakolatini ifodalaydi va uning alohida institut sifatidagi o'rnini belgilaydi. Sud hokimiyati davlat hokimiyatining eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Cheklangan monarxiya hamda respublika shaklidagi davlatlarda sud hokimiyati mustaqil tarmoq sifatida amal qiladi [7]. Bu jihat sud hokimiyatining demokratik boshqaruv tizimidagi ajralmas institut ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston respublika shaklidagi davlat bo'lib, Konstitutsiyaning 11-moddasiga muvofiq davlat hokimiyati uch tarmoqqa – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ajratilgan. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi davlat boshqaruvida o'zaro tiyib turish va muvozanat mexanizmini ta'minlaydi. Konstitutsiyaning 130-moddasida esa sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlardan, shuningdek siyosiy partiyalar hamda fuqarolik jamiyati institutlaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritishi belgilangan [8]. Ushbu norma sud mustaqilligini ta'minlash orqali odil sudlovni amalga oshirishning institutsional kafolati sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, ommaviy axborot vositalari sud jarayonlarini yoritishda nafaqat axborot erkinligini ta'minlash, balki ushbu erkinlikni huquqiy-me'yoriy talablar bilan uyg'un holda amalga oshirishi zarur. Xususan, ular sud hokimiyatining mustaqilligiga putur yetkazmaslik, aybsizlik prezumpsiyasiga qat'iy amal qilish, sud muhokamasi yakunlanmaguncha qonuniy va rasmiy asoslanmagan materialni e'lon qilmaslik, shuningdek, inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish kabi fundamental prinsiplarga rioya etishi shart. Aks holda, noto'g'ri yoki biryoqlama yoritilgan axborot nafaqat jamoatchilik fikrining buzilishiga, balki odil sudlov jarayoniga nisbatan tashqi bosim yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

2021-yil 28-iyulda qabul qilingan O'RQ-703-son "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida barcha sud ishlarining ochiq ko'rilishi belgilangan va faqat qonunda ko'rsatilgan hollarda ishlarni yopiq majlisda ko'rib chiqish mumkinligi ko'rsatiladi. Shuningdek, sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslar, jumladan ommaviy axborot vositalari vakillari fotosuratga olish, video va audioyozuv qilish imkoniyatiga ega ekani ham qayd etilgan [9]. Ba'zi hollarda sud majlisiga OAV vakillari yoki fuqarolarni kiritmaslik yoki ularni cheklash holatlari ham kuzatiladi. Sababi ayrim ishlar sudda yopiq ko'riladi. Qonunchilikka ko'ra, sud protsessi ishtirokchilari sudga asoslantirilgan iltimosnoma kiritganda, odatda jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar, farzandlikka olish, davlat siri bilan bog'liq

va boshqa ishlar yopiq sud majlisida ko'riladi. Bunday norma Jinoyat-protsessual kodeksining 19-moddasida mustahkamlangan. Lekin shunday bo'lsa-da, sud hukmlari, ajrimlari va qarorlari barcha hollarda oshkora e'lon qilinadi [10]. Jurnalistlar esa sud jarayonida faqatgina ruxsat etilgan usullar va cheklovlar doirasida faoliyat yuritishi kerak. Ular yopiq majlislar yoki maxfiy ma'lumotlar bilan bog'liq ishlarni e'lon qilganda qonuniy javobgarlikka tortilishi mumkinligini hisobga olishlari lozim.

Ommaviy axborot vositalari o'z materiallarida muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan o'zicha hal qilib qo'yishga yoki sudga qanday shaklda bo'lmasin ta'sir ko'rsatishga haqli emas. Ya'ni, O'RQ-703-son "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 66-moddasiga asosan sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydi [11]. Amaliyotda esa ba'zan OAV vakillarining, ularga qo'shilgan holda fuqarolarning sud majlisiga bostirib kirishga urinish holatlari ham kuzatilgan. Masalan, 2021-yilda "Effect.uz" nashri jurnalistlari jinoyat ishlari bo'yicha Termiz tumani sudiga borib, sud raisining xizmat xonasiga bostirib kirib, sud majlisida ishtirok etish va jarayonni tasvirga olishni o'ta qo'pol tarzda talab qilgandi. Bunday harakatlar jurnalist odob-axloqiga, kasb etikasiga zid xatti-harakatdir. Saytning ikki muxbiri sud binosidagi hodisadan so'ng qidiruvga berilib, sirdan hibsga olindi. Sal o'tib, internet-nashrning uch jurnalistiga hukm chiqarildi. Ulardan biri uch yilga ozodlikdan mahrum etildi, ikki nafariga turli muddatlarga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi [12]. Ammo nashrning ozodlikdan mahrum qilingan jurnalisti amnistiya bilan ozodlikka chiqarilgandi. Biroq oradan yillar o'tib, ya'ni 2026-yilda u ("Antikorrupsiya" OAV muxbiri sifatida) Jinoyat kodeksining oltita moddasi bo'yicha yana ozodlikdan mahrum qilindi. Mazkur holatlar jurnalistlar tomonidan sud jarayonlarini yoritishda qonuniy me'yorlarni bilish va kasbiy etika qoidalariga qat'iy rioya etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga asosan 402-I-son "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni jurnalistlarning kasbga oid odob-axloq qoidalarini belgilovchi 71-modda bilan to'ldirildi [13]. Unga ko'ra, jurnalistlarning kasbga oid odob-axloq qoidalarini jurnalistning shaxsiga va o'z kasbiga doir vazifalarni bajarish chog'ida uning xulq-atvoriga qo'yiladigan talablarni belgilovchi qoidalar bo'lib, ularni jurnalistlarning va ommaviy axborot vositalarining birlashmalari belgilaydi. Ommaviy axborot vositalari vakillari axborot olish va uni tarqatish huquqiga ega bo'lsalarda, bu huquq cheksiz emas va u amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sudyalarga bosim o'tkazilishining oldini olish hamda odil sudlov prinsiplariga rioya qilish demokratik-huquqiy davlatning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois jurnalistlar sud jarayonlarida ishtirok etishda belgilangan tartiblarga amal qilishi, sud faoliyatiga noqonuniy aralashmasligi, shuningdek, tarqatilayotgan axborotning xolis, aniq va qonuniy bo'lishini ta'minlashi zarur. Aks holda, bunday harakatlar nafaqat kasbiy obro'ga putur yetkazadi, balki qonuniy javobgarlikka ham sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari hech qachon va hech qanday hollarda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatiga dog' tushiruvchi, tuhmat ko'rinishidagi, shaxsiy hayotga aralashuv ruhidagi ma'lumotlarni bermasligi kerak, agar bunga amal qilinmasa, buning uchun ham ommaviy axborot vositalari, ma'lumotni tayyorlagan jurnalistlar javobgar bo'ladi. Fuqaro OAVda uning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi ma'lumotlar e'lon qilinganda, u ayni o'sha OAV orqali chiqib, o'zini himoya qilish huquqiga ega. Agar sudning hal qiluv qarori bajarilmasa, sud qoidabuzarga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda undiriladigan jarima solishga haqlidir. Jarimani to'lash qoidabuzarni sudning hal qiluv qarorida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish vazifasidan ozod etmaydi. O'zining sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma'lumotlar

rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma'naviy ziyonning o'rnini qoplashni talab qilishga haqlidir va bu huquq Fuqarolik kodeksining 1021–1022-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi [14].

Ommaviy axborot vositalarining sud faoliyati va sud jarayonlarini yoritishga oid faoliyatida 2020-yil 21-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 04-sonli "Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida"gi Qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki unda sud jarayonlarining ochiqligini ta'minlash, fuqarolarning axborot olish huquqini kafolatlash hamda OAV vakillarining sud majlislarida ishtirok etish tartibi aniq belgilab berilgan. Jumladan, qarorda quyidagilar keltirilgan:

ommaviy axborot vositalari muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan bashorat qilishga yoki sudga boshqacha tarzda ta'sir etishga (bosim o'tkazishga) haqli emas;

sudya sud qarori qonuniy kuchga kirmagan ish bo'yicha intervyu berishga yoxud ommaviy axborot vositalarida chiqish qilishga haqli emas;

sud muhokamasi oshkoraligi protsess ishtirokchisi bo'lmagan shaxslarga, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari vakillariga sud majlisida qatnashish imkoniyati berilishi bilan ta'minlanadi;

ommaviy axborot vositalari vakillarining ochiq sud majlisida ish bo'yicha ma'lumotlar olish maqsadida qatnashishi ma'lumot olishning qonuniy yo'li ekanligini inobatga olib, ularning qonunda nazarda tutilmagan asoslarga ko'ra, sud majlisi zaliga kirishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi;

ish muhokamasini yopiq sud majlisida o'tkazish to'g'risida sud asoslantirilgan ajrim chiqaradi va unda protsess ishtirokchilari bo'lmagan shaxslarning, ommaviy axborot vositalari vakillarining sud majlisi zaliga erkin kirishiga to'sqinlik qiladigan aniq holatlar ko'rsatilishi kerak;

ish muhokamasi yopiq sud majlisida o'tkazilishi to'g'risidagi ajrim e'lon qilingunga qadar protsess ishtirokchilari bo'lmagan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalidan chetlashtirilishi mumkin emas. Ish muhokamasi yopiq sud majlisida o'tkazilishi to'g'risidagi qaror ishni sud muhokamasiga tayinlash chog'ida qabul qilingan hollarda, protsess ishtirokchilari bo'lmagan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zaliga kiritilmaydi;

ish muhokamasini yopiq sud majlisida o'tkazish haqidagi ajrim e'lon qilinganidan so'ng protsess ishtirokchilari bo'lmagan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalidan chetlashtirilib, bu haqda sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi. Agar sud tomonidan jinoyat ishining muayyan qismi yopiq sud majlisida muhokama qilinishi to'g'risida qaror qabul qilinsa, protsess ishtirokchisi bo'lmagan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisining shu qismiga kiritilmaydi;

yopiq sud majlisi o'tkazilganda ishni elektron tarzda shakllantirishga, shuningdek, sud qarorlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishiga yo'l qo'yilmaydi;

protsess ishtirokchilari iltimosnomalarini, ommaviy axborot vositalari vakillari murojaatlarini qanoatlantirish yoki rad etish haqida sud joyida ajrim chiqaradi va sud majlisi bayonnomasiga kiritadi. Sud ommaviy axborot vositalari vakillarini tarqatilayotgan axborotning to'g'riligi, haqqoniyligi, xolisligi va ishonchliligi uchun javobgarlik haqida ogohlantiradi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida yozib qo'yiladi;

sud majlisida qatnashish uchun kelgan shaxslar, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari vakillarining sud binosiga kirishi sudning ichki faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar bilan o'rnatilgan qoidalarga qat'iy rioya qilingan holda ta'minlanishi lozim. Shu munosabat bilan sudlar ushbu hujjatlar bilan sud binosiga kirish joyida tanishish imkoniyatini ta'minlashlari zarur. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, chet davlatlar ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zaliga ular O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinganligi to'g'risida hujjat taqdim etgan taqdirda kiritiladilar;

protsess ishtirokchisi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari vakillarining ochiq sud majlisida qatnashishini cheklovchi yoki ularga monelik qiluvchi sharoit yaratilishi man etiladi va bunday holat protsessual qonun buzilishi deb hisoblanadi va qonunda belgilangan javobgarlik kelib chiqishiga sabab bo'ladi [15].

Jurnalistlarning huquqiy savodxonligini oshirish bugungi kunda nafaqat kasbiy zarurat, balki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, jurnalistlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish, malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish, amaliy treninglar va seminarlar tashkil etish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Masalan, o'z oldiga OAV vakillarining huquqlarini himoya qilishni maqsad qilib qo'ygan Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan Shveysariya va Fransiya elchixonalari bilan treninglar tashkil qilindi. Jurnalistlarning huquqiy savodxonligini oshirish uchun 100 savolga javob loyihasi tashkil etildi [16].

Ommaviy axborot vositalari vakillarining, xususan muxbir, jurnalistlarning samarali, qonunchilikka tayanib ishlashi hamda ularning kasbiy faoliyatida yuridik xatolarga yo'l qo'ymasligi uchun ularning huquqiy bilimlarini oshirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-sonli Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi [17]. Qarorga ko'ra, institutga zamonaviy talablar va jarayonlarni hisobga olgan holda adliya organlari va muassasalari xodimlari, yuridik xizmat, advokatura, notariat, sud ekspertizasi, arxiv ishi va ish yuritish, ijro intizomi, murojaatlar bilan ishlash, mediatsiya va intellektual mulk sohalari mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish vazifasi yuklatildi. Institut faqat yuqoridagilar bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Institut tomonidan yo'lga qo'yilayotgan o'quv kurslari ham jurnalist va blogerlarning nafaqat sud-huquq yo'nalishida, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, intellektual mulk va boshqa yo'nalishlarda ham mavzularni chuqur anglash va mas'uliyat bilan yoritish salohiyatini kuchaytiradi. Bu esa axborotni tahliliy, xolis va aniq tarzda yetkazish, noto'g'ri talqinlarning oldini olish hamda professional yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sudlar faoliyatining oshkoraligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi, biroq amaliyotda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, jurnalistlarning sud-huquq sohasidagi bilimlarini tizimli ravishda oshirish maqsadida maxsus ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlarini joriy etish zarur. Bunda jurnalistlar uchun sud jarayonlari, protsessual normalar, sud etikasi hamda axborot tarqatishdagi huquqiy cheklovlar bo'yicha Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan majburiy qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. **Ikkinchidan**, sudlar va ommaviy axborot vositalari o'rtasida institutsional hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Xususan, sud tizimida matbuot kotiblari faoliyatini yanada rivojlantirish, ular orqali jurnalistlarga tezkor va ishonchli axborot yetkazish amaliyotini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. **Uchinchidan**, sud jarayonlarini yoritishda jurnalistlar uchun aniq metodik qo'llanmalar va standartlar ishlab chiqish zarur. Ushbu hujjatlarda axborotni tayyorlash va tarqatishda rioya etilishi lozim bo'lgan minimal talablar, etik me'yorlar hamda javobgarlik masalalari batafsil belgilanishi kerak. **To'rtinchidan**, raqamli media sharoitida bloger va mustaqil kontent

yaratuvchilar faoliyatini ham huquqiy jihatdan tartibga solish va ularni ham malaka oshirish tizimiga jalb etish lozim. Chunki aynan ushbu qatlam sud jarayonlari haqida keng auditoriyaga tezkor axborot yetkazishda tobora faol ishtirok etmoqda. **Beshinchidan**, sud jarayonlarini yoritishda qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash bilan bir qatorda, halol va professional jurnalistik faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarini ham joriy etish zarur. Bu esa sifatli va mas'uliyatli axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu jarayon samaradorligi bevosita jurnalistlarning kasbiy tayyorgarligi, huquqiy bilim darajasi va etik me'yorlarga rioya etishiga bog'liq.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 27-iyundagi ommaviy axborot xodimlariga yo'llagan tabrigi. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8269>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-son "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6083381>
3. Judith Resnik, Yale Law School. The contingency of openness in courts: changing the experiences and logics of the public's role in court-based adr, 2015 // <https://openyls.law.yale.edu/server/api/core/bitstreams/a6cca18b-ab44-44c4-83b6-ed2245ed235d/content>
4. Jane Johnston, International Journal of Law in Context (2018), 14, 525–538 // [\(PDF\) Three phases of courts' publicity: reconfiguring Bentham's open justice in the twenty-first century](#)
5. Ilxombekov J. I. Internetdan axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari: avtoref. diss. ... PhD. — Toshkent, 2024. — URL: <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/10001253/Ndb109WGPvV4an.pdf?07rWBS0T4yWLXfz7xcSWq>
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
7. Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: darslik / Ma'sul muharrir: y.f.d., professor. I.R.Bekov // Mualliflar jamoasi. — T.: TDYU nashriyoti, 2024.- b 667.
8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
9. "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.07.2021-yildagi O'RB-703-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5534923>
10. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (Umumiy qism) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-111460>
11. "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.07.2021-yildagi O'RB-703-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5534923>
12. Effect.uz'ning sobiq bir va hozirgi ikki jurnalistiga sud hukmi o'qildi. Gazeta.uz. 2021-yil, 3-noyabr. — URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/03/journalist/>
13. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun, 18.04.2018 yildagi O'RB-476-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-3689258>
14. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (Ikkinchi qism) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-180552>
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 21.02.2020 yildagi 04-son "Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-4751577>
16. "Agar jurnalist haq bo'lsa, biz uni tan olishimiz kerak" – Prezident. Toshkent: Kun.uz, 8-noyabr 2024-yil. // . — URL: <https://kun.uz/06759881>
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmoni — "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-7437170>

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2

2026-YIL